DORIVOR VALERYANA O‘SIMLIGI(VALERIANA OFFICINALIS) YETISHTIRISH VA DORIVORLIK XUSUSYATLARINI O‘RGANISH.

[a]Tillavoldiyeva Umida Qurbonali Qizi
[a]Farg‘ona davlat universiteti, 1-kurs doktoranti
0009-0005-1012-7827

[b]Haydarov Mavlonjon Mashrabovich
[a]Farg‘ona davlat universiteti, biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
0000-0003-4179-150X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining bo‘z tuproqlari (och tusli va tipik) aminokislotalar tarkibi, ularning tuproq unumdorligidagi va energetik salohiyatidagi roli hamda dorivor valeriana (Valeriana officinalis L.) o‘simligini ushbu tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘z tuproqlar, aminokislotalar, gumus energiyasi, Valeriana officinalis, tuproq unumdorligi, biogeokimyo.*

KIRISH

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysining sug‘oriladigan yer resurslaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini qayta tiklash dolzarb muammo hisoblanadi. Tuproq organik moddasining muhim qismi bo‘lgan aminokislotalar tuproqdagi umumiy azotning 20% dan 50% gacha qismini tashkil etib, o‘simliklar uchun bevosita oziqa manbai va biologik faol modda vazifasini o‘taydi.

Shu bilan birga, farmatsevtika sanoati uchun xom-ashyo bazasini kengaytirish maqsadida dorivor o‘simliklarni, xususan, valeriana (Valeriana officinalis L.) o‘simligini mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga introduksiya qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi bo‘z tuproqlardagi aminokislotalar dinamikasini o‘rganish va ularning dorivor o‘simliklar hosildorligiga ta’sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Dorivor valeryana (Valeryana offitcinalis) o‘simligi va undan olinadigan dorilar tibbiyotda yurak qon tomir kasaliklarini oldina olish va davolashda va ayniqsa asab tizimi kasalliklari va tinchlantirishda qo‘llaniladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ba’zi fermer xo‘jaliklarida, masalan Toshkent viloyati Qibray tumani “GERBOFARM” xususiy korxonasi, Namangan viloyati Pop tumanidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligida, Toshkent viloyatidagi Y.Oxunbobayev nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat o’rmon xo‘jaligida va Parkent tumanidagi ba’zi fermer xususiy fermer xo‘jaliklarida valeryana yetishtirish soxasida muayyan ijodiy ishlar amalga oshiriladi va bu dorivor o‘simlikni Respublikamizning tog‘li hududlarida yetishtirish mumkunligi isbotlangan. Respublikamizning ixtisoslashtirilgan davlat o‘rmon xo‘jaliklarida valeryana o‘simligi ekish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Valeryana oilasiga (Valerianaceae) mansub dorivor valeryana (Valeryana officinalis L) ko‘p yillik o‘t bo‘lib, ildizpoyasi kalta va ko‘plab mayda ildizpoyalar bilan qoplangan va yer ostida tik joylashgan. Ildizpoyadan ildizpoyalar birinchi yilda, poyasi

esa ikkinchi yildan boshlab o‘sadi. Poyasi 1,5-2,0 metrgacha o‘sadi. Silindirsimon kichik qirralari bilan shoxlangan (ba’zan yuqori qismlari shoxlangan), ichi bo‘sh, yuqori qismi tuksizva paski qismi tuklar bilan qoplangan. Barglari oddiy patlar bilan ajiralgan, 4-11 juft segmentlardan (lablardan) iborat. Ildiz barglari uzun tasmali, poya barglari esa poyaning yuqori qismiga yetganda qisqaradi. Barglari poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, xushboy va poyaning oxirida karra qalqonsimon gulda toplangan. May-avgust oylarida gullaydi va iyun sentabrda meva beradi. Mevasi cho’zilgan tuxumsimon, och jigarrang, 1000 ta valeryana urug‘ining og‘irligi 0,4-0,6 gramm. May oyining oxiridan avgust-sentabrgacha gullaydi. Valeryana turlari polimorf o‘simliklardir. Ko‘p yillik valeryana Filnandiya chegarasidan sharqqa tarqalgan. Janubda uning areali Maldavgacha cho‘zilgan. Ulyanov viloyatida u asosan kanallar va suv bo’ylaridan bo‘ylab o‘tli va torfli botqoqlarda o‘sadi. Dunyoda ularning 250 ga yaqin turi yovvoyi tabiatda qayd etilgandir. Uning Osiyoda 12 turi, Respublikamizda esa 3 ta turi mavjud.Tabiatda valeryana tarqoq joylashganligi sababli, ularning tabiiy zaxiralari farmaseftika sanoati va aholining talabini qondira olmaydi. Dorivor valeryana (Valeryana offitcinalisL) asosan tibbiyotda qo‘llaniladi va u maxsus fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Valeryanani ildizi va poyasidan dorilar tayorlash uchun ishlatilinadi. Farmaseftika sanoatida u ”Valeryana ildizi“ deb ataladi.

YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

Kuzgi shudgorlash avvalgi ekin turiga bog‘liq. Tuproqning namlik miqdorini hisobga olgan holda, hosil yeg‘ib olingandan so‘ng avvalgi hosilni sug‘orish mumkin, shundan so‘ng yerni qaytadan ishlash osonroq bo‘ladi. Toza yerlar sug‘orilgandan so‘ng, tuproq 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Begona o’tlar bilan to‘lgan tuproqni sug’organdan so’ng tozalanadi. Kultuvator yordamida tuproq 7-9 sm chuqurlikda yumshatiladi. Bu harakatlar tuproqning yuqori qismidagi namlikni saqlaydi, dala begona o‘tlar va zararkunandalardan holi bo’lgandan kegin, o‘simlik urug’lari tuproqqa ekiladi. Begona o’tlardan tozalangan maydon 60 sm kenglikda chisel bilan olib tashlanadi, va har bir gektar yerga 7-9 kg go‘ng solinadi. Yerga ekilgan urug’ning chuqurligi 1-1,5 sm dan oshmasligi kerak. Valeryana urug’lari sovuqqa chidamli va tuproq harorati 15 giradus bolganda unib chiqadi. Lekigin urug’ning unib chiqish optimal darajasi 20 giradusni tashkil qiladi. Ob- havo sharoiti yaxshi bo’lganda,urug’lar yerga ekilgandan so‘ng 15-20 kun o‘tgach unib chiqa boshlaydi. Vegitatsion davrining ikkinchi va undan kegingi yillarida qorlar erishi bilan valeryana unib chiqa boshlaydi. Shundan so‘ng u yumshatilinadi, o‘tlardan tozalaniladi. Nihollarga mahalliy va meniral o‘g‘itlar beriladi. Gektariga 30-40 kg azot va fosfor meniral o‘g‘itlari berish tavsiya etiladi. Valeryavani qayta ishlash jarayonida katta ildizlarga ega bo‘lgani uchun o‘sib chiqqan gullar poyadan olib tashlanadi. Valeryanani urug‘idan tashqari ko’chati ham orqali ko‘paytirish mumkin. Buning uchun maxsus ko‘chatxona (pitovnik) tashkil etiladi, ko‘chatlar yetishtiriladi va o‘sgandan so‘ng ochiq yerga ko‘chiriladi. Har bir ko‘chat bir biridan 10-15 sm oraliqda ekilish kerak va darxol sug‘oriladi. Valeryana ildizlari vegitatsiya davrining ikkinchi yil oxirida o‘simlik urug‘i pishgandan so‘ng qazib olinadi. Har gektaridan 15-20 sentiner quruq ildiz qazib olinadi. Yeg‘ib olingan maxsulot tuproqdan tozalaniladi, maxsus idishlarga solinib suvda yuviladi. Suvi qurishi

uchun bir muddat ochiq joyga qoldiriladi va quritgichda 30-40 giradusda qurutiladi. Valeryana ildizlari hidsiz bo‘ladi.

KIMYOVIY TARKIBI

Efir moylari alkoloidlar, izovaleryan kislatasi, sirka olma kislatasi,sapanin qo‘shimchasi mavjud. Valeryana ildizlari tarkibida 0,5—2,0% efir moyi vasof izovaleryan kislatasi mavjud.Efir moylari asosan ingichka ildizlarida, izovaleryan kislatasi esa yosh va qari ildizlari mavjud. Efir moydan tashqari maxsulot tarkibida taxminan 0,01% alkoloidlar (xatinin, valerin, aktenidin va boshqalari), uchuvchan asoslar, valerid glikozid yuzasi, shakar, olma kislata mavjud.

QOLLANILISHI

Tibbiyotda ildizpoyasi, ildizi, yer ustki qismi ishlatiladi. Uning hom ashyosi uyqusizlik, asab kasalliklari, yurak qon tomir kasalliklarida



XULOSA VA TAVSIYALAR

Farg‘ona vodiysi bo‘z tuproqlari boy aminokislotalar zaxirasiga ega bo‘lib, ular tuproq energiyasini boshqarishda asosiy rol o‘ynaydi.

Aminokislotalarning profil bo‘ylab taqsimlanishi gumus miqdoriga bevosita bog‘liq bo‘lib, maksimal akkumulyatsiya haydov qatlamida (0-30 sm) kuzatiladi.

Valeriana officinalis L. o‘simligini bo‘z tuproqlar sharoitida yetishtirishda urug‘larni 0,2 sm chuqurlikda ekish va vegetatsiya davomida optimal sug‘orish rejimini saqlash tavsiya etiladi.

Dorivor o‘simliklar hosildorligini va mahsulot sifatini oshirish uchun tarkibida erkin aminokislotalar bo‘lgan aminokomplekslardan foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ASOSIY MANBALAR:

1. Калиманова А.П. Некоторые данные по интродукции *Valeriana officinalis* L. в Якутском ботаническом саду // Материалы к изуч. лекарств. флоры Якутии. –Якутск, 1977.

2. Качарава Т. Продуктивность *Valeriana officinalis* L. в зависимости от агробиологических особенностей // Сообщ. Акад. с-х. наук Грузии. –2000. –№7.

3. Yuldashev G‘., Isag‘aliyev M. Tuproq biogeokimyosi. Tafakkur Bo‘stoni nashriyoti. -T.: 2014. 352 b.